



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA DA YOSHLAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Maxatova Nozima Ismatillo qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar psixologiyasiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, virtual muhitda shakllanuvchi kommunikativ jarayonlar hamda axborot iste'moli madaniyati yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va psixologik holatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-psixologik moslashuv, identifikatsiya jarayoni, ruhiy barqarorlik va motivatsion omillar o'rganilib, zamonaviy axborot oqimining ijobiy va salbiy ta'sir mexanizmlari tahlil qilingan. Maqola yoshlar bilan ishlashda samarali psixologik yondashuvlar va profilaktik choralarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, yoshlar psixologiyasi, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot iste'moli, psixologik moslashuv, identifikatsiya.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЮ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

Махатова Нозима Исмаилло кизи
Университет экономики и педагогики, доцент (PhD)

Аннотация

В статье проводится комплексный анализ факторов, влияющих на психологию молодёжи в условиях информационного общества. Рассматривается влияние стремительного развития цифровых технологий, социальных сетей, особенностей виртуальной коммуникации и культуры потребления информации на личностное развитие и психоэмоциональное состояние молодого поколения. Исследуются вопросы социально-психологической адаптации, идентичности, эмоциональной устойчивости и мотивационных механизмов, а также анализируются позитивные и негативные эффекты информационных потоков. Материал направлен на разработку эффективных психологических подходов и профилактических мер в работе с молодёжью.

Ключевые слова: информационное общество, психология молодёжи, цифровые технологии, социальные сети, потребление информации, психологическая адаптация, идентичность.

FACTORS INFLUENCING YOUTH PSYCHOLOGY IN THE CONDITIONS OF AN INFORMATION SOCIETY

Maxatova Nozima Ismatillo qizi
University of Economics and Pedagogy, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the factors influencing youth psychology in the context of an information society. It examines the impact of rapidly evolving digital technologies, social media platforms, virtual communication practices, and information consumption culture on the personal development and psychological well-being of young people.

The study explores socio-psychological adaptation, identity formation, emotional resilience, and motivational factors while analyzing both the positive and negative effects of modern information flows. The findings aim to contribute to the development of effective psychological approaches and preventive strategies in working with youth.

Keywords: information society, youth psychology, digital technologies, social media, information consumption, psychological adaptation, identity.

XXI asr globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan tavsiflanib, jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirishga olib kelmoqda. Bugungi kunda yoshlar axborot oqimining eng faol iste'molchisi va yaratuvchisi sifatida raqamli muhitda shakllanayotgan turli psixologik, ijtimoiy va kommunikativ ta'sirlarga bevosita duch kelmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internetning keng ommalashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida markaziy o'rin egallashi ularning dunyoqarashi, o'zini anglash jarayoni, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy munosabatlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda yoshlarning psixologik holatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularga raqamli kommunikatsiya jarayonlari, media mazmunining emosional xususiyatlari, internet-madaniyatning qadriyat tizimiga ta'siri, onlayn ijtimoiy guruhlar orqali shakllanadigan identifikatsiya jarayonlari ham kiradi. Shuningdek, axborot xavfsizligi, media savodxonligi va raqamli kompetensiyalar darajasi ham yoshlarning psixologik immuniteti va axborot oqimiga nisbatan barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, axborot texnologiyalari hayot sifatini yuksaltirish bilan birga, yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni ham kuchaytirmoqda. Shuning uchun axborotlashgan jamiyatning yoshlar psixologiyasiga ko'rsatadigan ta'sir mexanizmlarini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, zarur psixologik-profilaktik choralarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari, yoshlar siyosati va ularning psixologik farovonligini ta'minlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida belgilab qoyilgan: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi." [1]

O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasida belgilab qo'yilganidek, oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar berish tizimini rivojlantirish yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari hisoblanadi. [2]

Adabiyotlar sharhi. Axborotlashgan jamiyat, raqamli psixologiya va yoshlar ruhiyati bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaygan. Mazkur adabiyotlar sharhida xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari tahlil qilinadi.

M. Kastellsning "Axborot davri" konsepsiyasi raqamli tarmoqlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va identifikatsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, informatsion muhitda shaxs o'zining ijtimoiy o'rnini virtual makon orqali qayta quradi. Bu g'oya yoshlar psixologiyasiga to'g'ridan ta'sir qiladi. [4]

D. Bellning postindustrial jamiyat nazariyasi esa bilimlar va axborotning ustuvorligiga urg'u beradi. Bu yondashuvda yoshlar axborot iste'molining asosiy subyekti sifatida ko'riladi. [3]

J. Twenge, S. Livingstone va P. Valkenburg kabi tadqiqotchilar internet va ijtimoiy

tarmoqlarning psixik salomatlikka ta'siri, xususan, stress, tashvish, past o'zini baholash va ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari haqida qimmatli ilmiy dalillar keltirganlar.[5;6;7] Ularning tadqiqotlarida quyidagi xulosalar mavjud:

ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazish depressiv holat ehtimolini oshiradi;
media-kontentning filtrlashsiz iste'moli yoshlarning emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi;

onlayn muloqotning ortishi real ijtimoiy ko'nikmalarni pasaytirishi mumkin.

O'zbekistonlik psixolog va pedagog olimlar - Q. Kattaboyev, N. Yusupov, D. Alimova va boshqalar - raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy immuniteti va media savodxonligi masalalarini chuqur yoritgan.[8;9;10]

Mahalliy tadqiqotlarda quyidagi muammolarga alohida e'tibor beriladi:

yoshlarning internet xulqi va ularning axborot madaniyati;

psixologik moslashuvning raqamli omillarga bog'liqligi;

internetdagi xavf va xurujlarga (kiberbulling, ekstremistik kontent) nisbatan psixologik himoya.

UNESCO, UNICEF va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda bolalar va yoshlarning raqamli muhitdagi xavfsizligi hamda ongli axborot iste'moli global muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, media savodxonlikning oshishi yoshlarning psixologik barqarorligini kuchaytirishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar psixologiyasiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, nazariy tahlil, empirik, psixodiagnostik testlar, suhbat, kuzatish, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar psixologiyasiga ko'rsatiladigan ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli muhit yoshlarning tafakkuri, emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari va o'zini anglash jarayonini sezilarli darajada shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular shaxs rivoji uchun ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni yuzaga olib kelmoqda.

Axborot iste'molining psixologik ta'sirini o'rganilganda tahlil natijalariga ko'ra, yoshlar orasida axborot iste'moli hajmi kuniga o'rtacha 4–6 soatni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich yoshlarning emotsional holatida kognitiv charchoq - axborot ortiqchiligi sindromi, emotsional o'zgaruvchanlik – stress va tashvishning oshishi, ijtimoiy taqqoslash natijasida o'zini past baholash kabi tendensiyalarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning shaxsga ta'siri o'rganilganda esa ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan muloqotning o'ziga xos xususiyatlari yoshlarning o'zini namoyon qilish, o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy rollarni idrok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Axborotning yoshlar psixologiyasiga ta'sirida asosiy salbiy omillar sifatida kiberbulling va onlayn tajovuz, ideallashtirilgan obrazlarni ko'rish natijasida psixologik nosozliklar, virtuellashtirilgan munosabatlar tufayli real ijtimoiy ko'nikmalarning pasayishi omillarini ko'rsatish mumkin. Axborotning yoshlar psixologiyasiga ta'sirida asosiy ijobiy omillar sifatida ijobiy omillar esa o'zini ifoda etish imkoniyatining kengayishi, raqamli ta'lim resurslariga erkin kirish, ijodkorlik va kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish omillari anuqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida raqamli qaramlik (internetga haddan tashqari bog'liqlik) kuchayib bormoqda. Bu esa e'tiborning tarqoqligi, uyqu sifatining buzilishi, vaqt boshqaruvi muammolari, impulsiv xulq kabi psixologik mezonlarni keltirib chiqarmoqda.

Media savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan yoshlar salbiy axborot ta'sirini tezroq filtrlashi, tanqidiy fikrlashi va psixologik barqarorlikni saqlab qolishi kuzatiladi. Bu shuni anglatadiki, yoshlarning axborot-madaniy immuniteti ko'proq bilim va ongli foydalanishga

bog'liq.

Oila, ta'lim muassasalari va jamiyatdagi kommunikativ tizimlar yoshlar psixologiyasini himoya qiluvchi mediator sifatida namoyon bo'ladi. Ota-onaning raqamli madaniyati yuqori bo'lsa, yoshlar internetdan mas'uliyatli foydalanadi. Maktab va oliygohlarning media savodxonlik bo'yicha ta'lim dasturlari psixologik risklarni kamaytiradi. Empirik tekshiruvlar natijalariga ko'ra axborot muhitining psixologik salbiy ta'siri yuqori bo'lgan guruh - yoshlarning taxminan 35–40%ida axborot ortiqchiligi, tashvish, diqqatning tarqoqligi kabi belgilar yaqqol seziladi, ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soatdan ortiq vaqt sarflaydigan respondentlar orasida depressiv tendensiyalar 2,3 baravar ko'proq kuzatildi, media savodxonligi yuqori guruh vakillari stressni boshqarish, salbiy axborotni filtrlay olish qobiliyati bo'yicha ancha ijobiy natija ko'rsatdi. Yoshlarning 52% ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lishiga qaramay, real hayotdagi muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarda qiyinchiliklar borligini bildirgan.

Raqamli qaramlik yuqori bo'lgan guruhlarda:

uyqu buzilishi — 48%;

vaqtini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar — 61%;

past o'zini baholash — 39% kuzatilgan.

Xulosa va tavsiyalar. Yig'ilgan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, axborotlashgan jamiyat yoshlar psixologiyasi oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf va chaqiriqlarni ham qo'ymoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, media kontent va raqamli texnologiyalarning kuchli ta'siri yoshlarning emotsional barqarorligi, shaxsiy o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan.

Yoshlarning psixologik holatini mustahkamlash uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

media savodxonlikni oshirish;

psixologik profilaktika dasturlarini joriy qilish;

ijobiy axborot muhitini yaratish;

raqamli qaramlikning oldini olish;

ota-ona va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyatda yoshlar psixologiyasini muhofaza qilish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda davlat siyosati, ta'lim tizimi, oilaviy tarbiya va individual psixologik ko'nikmalar bir-biri bilan uzviy uyg'un holda faoliyat yuritganda optimal natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi). 30.04.2023 y. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 14.09.2016 y. O'RQ-406 <https://gov.uz/ru/yoshlar/pages/laws>
3. Bell, D. *The Coming of Post-Industrial Society*. New York: Basic Books.1973.
4. Castells, M. *The Rise of the Network Society* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.2010.
5. Livingstone, S. *Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities*. Polity Press.2009.
6. Twenge, J. M. *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy—and Completely Unprepared for Adulthood*. Atria Books.2017.
7. Valkenburg, P. M., & Peter, J. Online Communication and Adolescent Well-Being: Testing the Stimulation Versus the Displacement Hypothesis. *Journal of Computer-Mediated Communication*, 16(2), 200–209.2011.
8. Махатова Н.И. Ахборотлашган жамиятда ёшлар психологиясига таъсир этувчи омиллар. "Психология фани ва ёшларнинг ривожланиши" мавзусидаги халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари, Тошкент, 2020 йил, 581-584 бетлар.